SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 8 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)

**Сайт:** https://scienceproblems.uz

**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 8 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

**Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

## *МУНДАРИЖА*

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Воҳидова Комила Абдуллозизовна*
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА .......... 11-17

*Сулайманов Саламат Арепбаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) .......... 18-24

*Раупов Холмамат*
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ .......... 25-32

*Мажидов Анвар Сиражович*
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) .......... 33-40

*Begamova Nasiba Xolmurzayevna*
FERMER XO‘JALIKLARI VA KLASTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA’LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) .......... 41-48

*Алланазаров Мурот Мирзаевич*
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА .......... 49-54

*Ismoilova Feruza Ibragimovna*
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI XIZMATLARI .......... 55-59

*Tursunov Xurshid Nasriddinovich*
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI .......... 60-64

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF ENTERPRISES .......... 65-70

*Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS .......... 71-75

*Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .......... 76-84

*To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li*
KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR ........ 85-92

*Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich*
MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI ........ 93-98

*Turobov Sherzod Alisherovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI ........ 99-105

*Шамсиев Нодир Муратович*
МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ ........ 106-110

*Zaripova Moxira Zarip qizi*
AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ........ 111-114

*Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич*
ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ ........ 115-121

*Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi*
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI ........ 122-127

*Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи*
МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 128-137

*Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович*
ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ ........ 138-150

*Мамадиёров Олимжон Умарович*
ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ........ 151-158

*Раббимов Жахонгир Эшбоевич*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ ........ 159-164

*Кулибоев Азамат Шоназарович*
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ ........ 165-174

*Гадоев Сўҳроб Жумакулович*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ ........ 175-181

*Бекжанов Дилмурад Йўлдашович*
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ ........ 182-193

***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Boydadayev Abdurroxmon Tolibjon o‘g‘li*
SHARQ VA G‘ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) ........ 194-200

*Xayridinov Abbosxon Anvarovich*
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA’NAVIY MA’RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 201-205

*Quramboyev Alisher Maxsudovich*
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI ........ 206-211

*Jo‘rayev Alisher Tulqinboyevich*
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR MAQSADI ........ 212-217

*Turabova Sevara Kattaqulovna*
ILMIY BAHS FENOMENINING MANTIQIY– GNOSEOLOGIK MAQOMINI O‘RGANISHDA KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV ........ 218-224

*Пардаева Марҳабо Давлатовна*
АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ ҒОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ ........ 225-233

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*
NIKOH MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI ........ 234-240

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*
DINIY MANBALARDA GO‘ZALLIK TO‘G‘RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR ........ 241-246

*Юсупова Феруза Зойировна*
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНИНГ МЕЗОНИ ........ 247-251

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*
IJTIMOIY ADOLATNI TA’MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI ........ 252-257

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Soatova Nodira Isomitdinovna*
LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIIY IFODASI ....................258-265

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich*
FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA ....................266-269

*Yusupova Omina Muhammadzoir kizi*
DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE ....................270-276

*Бозорова Хулкар Одинакуловна*
РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ....................277-282

*Matyakubov Oybek Quralbayevich*
KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI ....................283-288

*Фатуллаева Камола Рахматуллаевна*
ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ ....................289-293

*Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna*
O‘ZBEK TILIDA KAUZATIV FE’LLARNING YASALISH USULLARI ....................294-299

*Xamzayev Otaxon Erkinovich*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI ....................300-305

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ ....................306-310

*Сафоева Садокат Мусоевна*
ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА ....................311-320

*Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ ....................321-330

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Zoirova Lola Xamidovna*
TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI” MAVZUSINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH ....... 331-336

*Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich*
KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA) ....... 337-343

*Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li*
YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH ....... 344-349

*Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi*
ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS ....... 350-355

*Джумаева Хулкархан Мухаммаджоновна*
ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ .. 356-361

*Islomova Madina Asqarovna*
INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ....... 362-368

*Raxmatova Mexrinoz Majitovna*
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ....... 369-373

*Абдукаюмова Наргиза Райимовна*
ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ–ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ ....... 374-384

*Norboyev Farxod Chorshanbiyevich*
KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR ....... 385-390

*Borasheva Aybolgan*
EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING ....... 391-398

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*
KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQIY TAHLILI ....... 399-409

*Boboraximov Sanjar Malikjanovich*
MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR ....... 410-414

*Salimova Shahlo Sayfulloyevna*
XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI ....... 415-421

*Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi*
METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS ........ 422-427

*Xamroyev Samijon Salimovich*
SPORT TO‘GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI ........ 428-433

*Kattaeva Feruza Shakirovna*
DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD ........ 434-441

*G‘ofurov Azizbek Umarjonovich*
BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 442-447

*Abduraximova Umida Shuxratovna*
BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........ 448-454

*Obidova Gulmira Kuzibaevna*
INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR ........ 455-460

*Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna*
PROFESSINAL TA’LIM YO’NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH ........ 461-469

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 8 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00- Педагогика фанлари*

**Xamroyev Samijon Salimovich**
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent v.b.
Navoiy davlat pedagogika instituti,
E-mail: hamroyev84@bk.ru

## SPORT TO'GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sport to'garaklari orqali talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish komponentlarining dolzarb masalalari yechimiga oid maqsad va vazifalar, ilmiy g'oyalar, tavsiyalar haqida so'z yuritiladi. Talabalar sportini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asosini qisqacha tahlil qilish, sportni rivojlantirishni ijtimoiy-shaxsiy boshqarishning pedagogik tamoyillari, funksiyalari va usullari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, sport, komponent, texnologiya, operatsion, refleksiv, reproduktiv, optimizatsiya, subyektiv, taktika, texnika, me'zon, to'garak, metodika, harakat.

**Khamraev Samizhon Salimovich**
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Acting Associate Professor Navoi State Pedagogical Institute,

## COMPONENTS OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL CULTURE OF STUDENTS THROUGH SPORTS CLUBS

**Abstract.** This article discusses the goals and objectives, scientific ideas, recommendations concerning the solution of topical issues of the components of the development of physical culture of students in sports clubs. A brief analysis of the regulatory framework for the development of student sports is carried out, pedagogical principles, functions and methods of socio-personal management of sports development are considered.

**Keywords:** physical education, sports, component, technology, operational, reflexive, reproductive, optimization, subjective, tactics, technique, moderation, circle, methodology, movement.

**Хамраев Самижон Салимович**
доктор философии(PhD) по педагогическим наукам, и.о.доцент
Навоийский государственный педагогический институт,
Узбекистан.

## КОМПОНЕНТЫ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ СПОРТИВНЫХ КРУЖКОВ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается цели и задачи, научные идеи, рекомендации, касающиеся решения актуальных вопросов компонентов развития физической культуры учащихся в спортивных кружках. Проведен краткий анализ нормативно-правовой основы развития студенческого спорта, рассмотрены педагогические принципы, функции и методы социально-личностного управления развитием спорта.

**Ключевые слова:** физкультура, спорт, компонент, технология, оперативный, рефлексивный, репродуктивный, оптимизационный, субъективный, тактика, техника, критерий, кружок, методика, действие.

DOI: https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N61

**Kirish.** Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini taʼminlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Aholini ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun hamda ularni salomatligini mustahkamlash borasidagi qonunchilik tizimining yaratilishi va bu orqali faoliyatlar koʻlamini yaxshilash masalalari davlatimizning asosiy eʼtiborida boʻlib kelmoqda.

Mustaqil Oʻzbekiston taraqqiyotida jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat va sport sohalarining rivojlanishi ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu sohaning nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirishga prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev katta eʼtibor berayotganligi, erishilayotgan yutuqlarimizning poydevori boʻlib xizmat qilmoqda. Sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, millat genofondini yanada sogʻlomlashtirish, barkamol avlodni tarbiyalash borasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish ahamiyati davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri deb belgilangan. Qisqa muddatda bu sohada olib borilgan keng koʻlamli amaliy harakatlar oʻz samarasini bera boshladi.[1; 54-b.]

Oʻzbekistonda jismoniy tarbiya va sport tizimini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga koʻra hozirgi sharoitda talabalar sportini rivojlantirishni boshqarishning anʼanaviy ravishda yuzaga kelgan sxemalaridan mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy oʻzgarishlarga mos ravishda javob beradigan innovatsion boshqaruvga oʻtishning jiddiy zarurati paydo boʻldi.

Ushbu konsepsiyaning maqsadi “Oliy taʼlim muassasalari talabalariga sogʻlom turmush tarzini olib borish, jismoniy tarbiya va sport bilan tizimli shugʻullanish, rivojlangan sport infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatini yaratish, shuningdek, Oʻzbekiston sportining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini taʼminlovchi sharoit yaratish”dan iborat. [1; 56-b.]

Oʻzbekistonda talabalar sportini rivojlantirishni boshqarish jarayonini takomillashtirishning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib “Oliy taʼlim muassasalarining jismoniy tarbiya, sport va sogʻlomlashtirish ishlarini, shuningdek, umuman Oʻzbekistonda talabalar sportini rivojlantirishni taʼminlaydigan ustuvor yoʻnalishlar tizimi”ning ilmiy-nazariy asoslanishi hisoblanadi.

Talabalar sportini rivojlantirishning meʼyoriy-huquqiy asosini qisqacha tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, hozirgi bosqichda davlat boshqaruvi tizimida talabalar sporti harakatini yanada rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda talabalar sportini rivojlantirishni boshqarish muammolarini nazariy-uslubiy tahlil etish maqsadi bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Va quyidagi vazifalarni belgilab olib, ularga oʻziga xos javob axtarish masʼuliyatini ilgari suradi:

1. Talabalar sportini rivojlantirishni ijtimoiy-shaxsiy boshqarishning pedagogik tamoyillari, funktsiyalari va usullarini belgilash;

2. Pedagogik boshqarish mexanizmi mazmuni va tashkiliy-didaktik tuzilishini asoslash.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** So‘ngi besh yillikda O‘zbekiston aholisi hayot sifatining yaxshilanishi jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish ko‘rsatkichlarida ham o‘z aksini topdi. Xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar yaxshilandi.

Talabalarni jismoniy madaniyatini zaruriy komponentlarga ajratdik, ular: motivatsion, shaxsiyatli-axloqiy, jismoniy, axborotli, operatsion, refleksiv komponentlar:

1) Motivatsion komponent jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga ehtiyojli munosabatni ifodalaydi;

2) Shaxsiyatli – axloqiy komponenti talaba shaxsini sport hayotini turli tomonlariga ijobiy turg‘un munosabatlarni aniqlovchi xususiyatlarini aniqlaydi;

3) Jismoniy komponent jismoniy rivojlanish va sog‘liq holatini, organizmni ishlash imkonlarini va harakatli xususiyatlarini aniqlaydi;

4) Axborotli komponent jismoniy kamolot va sport faoliyat asoslarini nazariy, amaliy va tashkiliy-metodik bilimlarini o‘z ichiga oladi;

5) Operatsion komponentni jismoniy tarbiya va sport faoliyatini amalga oshirishga harakatli va tashkiliy, metodik mahoratlar va ko‘nikmalarni tashkil etish;

6) Refleksiv komponenti tanlangan sport turida o‘z o‘rnini va rolini mustaqil aniqlashiga o‘z-o‘zini bilish, o‘z munosabatini va o‘z mavqeini aks ettiradi.

Mazkur komponentlar talabalarni sport olami bilan o‘zaro bog‘langanlik darajasini aniqlaydi, hamda jismoniy sifatlarni rivojlantiradi va o‘zining majmuida talaba yoshlarni muvaffaqiyatli sport faoliyatiga imkonlarini ochib berib, sport madaniyatini funksional tizimini yaratadi. Ushbu komponentlarni har biri talaba-shaxsini sport madaniyatini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi va tegishli o‘ziga xos mazmuni bilan tavsiflanadi.

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sport to‘gagaraklari orqali talabalarda jismoniy madaniyatini rivojlanish mezonlari va ko‘rsatkichlarini ajratish muammosi hamda ularni adekvat metodikalarini tanlash muammosi hozirgi kunda yetarli darajada to‘liq o‘rganilmagan.

Shuning uchun biz o‘z tadqiqotimizda sport to‘garaklari orqali talabalarda jismoniy madaniyatini rivojlantirish komponentlari, mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqib, amaliyotga qo‘lladik.

Sport to‘gagaraklari orqali talabalarda jismoniy madaniyatning rivojlanishini motivatsion komponenti birinchi mezoni-shaxsni sportga yo‘naltirilishidir. Psixologiya fanlari doktori, professor A.V.Shaboltas tomonidan ishlab chiqilgan “Sport bilan shug‘ullanish” metodikasi yordami bilan diagnostikalangan sport bilan shug‘ullanish motivlarini nisbiy ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda talabalarni sportga yo‘naltirishning uch pog‘onasini ajratdik – jismoniy sog‘lomlashtiruvchi, yarim sportli, sport.

Rivojlanishni motivatsion komponentini ikkinchi va uchinchi mezonlari – sport bilan shug‘ullanishga qiziqish va tanlangan sport turi bilan shug‘ullanishdan zavq olishdan iboratdir. Talabalarni rivojlanish ko‘rsatkich komponentlari, aynan: “Sport bilan shug‘ullanish” metodikasi yordami bilan diagnostikalangan, emotsional, motivatsion, bilimli va irodali qiziqishlar orqali aniqlangan.

Shaxsning axloqiy komponentini rivojlanish darajasi toʻgʻrisida toʻrt mezonlar koʻrsatkichlari:

subyektiv mezoni nazorat darajasini aniqlovchi, biz tomonimizdan modifikatsiyalangan V.G.Romekni "Oʻzidagi ishonch testi" metodikasi varianti yordamida diagnostikalangan insonning oʻziga nisbatan munosabatini sport faoliyatini subyektiv sifatida tavsiflaydi, uning rivojlanish koʻrsatkichlari oʻzida ishonchligidir;

talabani musobaqali faoliyatini shartlariga munosabatini aks ettirish mezoni, uning rivojlanish koʻrsatkichlari Ch.Spilbergerni "Shaxsiyatli xavotir" metodikasi yordamida diagnostikalangan xotirjamlikdir.

Sportdagi natijalar mezoni uning "Irodali sifatlarini oʻz-oʻziga baho berish" metodikasi yordamida diagnostikalangan rivojlanishining koʻrsatkichlari - sobitqadamlilik va qatʼiyatdir.

**Muhokama.** Shaxsiy-axloqiy komponentni toʻrtinchi mezoni - hayot sport tarzidir, uning rivojlanish koʻrsatkichlari quyidagicha:

– oʻquv mashgʻulotlarining davomati;

– sport toʻgaraklari vaqtida mustaqil jismoniy faollik;

– sport musobaqalarida qatnashish;

– zararli koʻnikmalardan voz kechish;

– uyqu, ovqatlanish, oʻqish, dam olish, rejimni saqlash, tiklanish va chiniqtirish tadbirlari.

Ushbu koʻrsatkichlarning oʻlchamlari biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Hayotda sportning oʻrni" anketa-soʻrov metodikasini va pedagogik kuzatuv qoʻllanishi bilan amalga oshiriladi.

Jismoniy komponent rivojlanishining birinchi mezoni – organizmni funksional imkoniyatlaridir. Uning rivojlanish koʻrsatkichlari adaptatsion potensialini aniqlash metodikasi, ikkinchi mezoni – tezlik, tezlik kuchi, kuchli va koordinatsion qobiliyatlar hamda chidamlilik va egiluvchanlik koʻrsatkichlari boʻyicha diagnostikalanadigan harakatli qobiliyatlar darajasidir. Ushbu koʻrsatkichlarni aniqlash uchun talaba yoshlarni jismoniy tarbiya amaliyotida umumiy qabul qilingan test mashqlari qoʻllaniladi.

Operatsion komponenti rivojlanishining birinchi mezoni-tashkiliy metodik mahoratlardir, uning rivojlanish koʻrsatkichlari pedagogik testlar yordamida diagnostikalanadigan jismoniy mashqlar bilan shugʻullanishni tashkillashtirishdir. Operatsion komponent rivojlanishining ikkinchi mezoni - tanlangan sport turini taktika va texnikasiga ega boʻlishdir. Uning rivojlanish koʻrsatkichlari – ekspert baholash yordamida diagnostikalanadigan tanlangan sport turini texnik-taktik usullarini bajarish mahoratidir.

Refleksiv komponent rivojlanish mezonlari-oʻzini bilish, oʻziga munosabat va oʻz kelajagini tanlash jarayonlaridir. Oʻzini bilish rivojlanish darajasi oʻzi toʻgʻrisida sport faoliyati subyekti sifatida toʻliq va aniq bilimlar koʻrsatkichlari boʻyicha, oʻziga munosabat-talabalarni oʻzlarini sport faoliyati subyekti sifatida emotsional qabul qilish koʻrsatkichlar boʻyicha, oʻz taqdirini belgilash, tanlangan sport turi sohasida oʻz oʻrnini va rolini mustaqil aniqlash qobiliyat koʻrsatkichlari boʻyicha aniqlanadi[1; 83-b.].

Ajratilgan mazkur komponentlar, mezonlar, rivojlanish koʻrsatkichlari va metodik texnologiyalar talabalarda sport toʻgaraklari orqali jismoniy madaniyat rivojlanishining uch darajasini belgilab oldik: reproduktiv, optimizatsiya va ijodiy.

Reproduktiv darajada talabalar sport toʻgaraklarida harakatlarni muvofiq mexanik tarzda bajaradi.

Optimizatsiya darajada talabalar oʻzini shaxsiy imkoniyatlari bilan, aniq holatni obyektiv va subyektiv sharoitlar bilan kelishilgan holda, sport faoliyatini ayrim bajariladigan operatsiyalar va harakatlar darajasida amalga oshiriladigan usullarga oʻzgarishlar kiritish tayyorligini namoyon qiladi.

Ijodiy darajada talaba shaxsini mavjud qobiliyatlarni inobatga olgan holda sportdagi faoliyatini hayotda tatbiq etadi. [3; 214-b.]

**Sport toʻgaraklari orqali talabalar jismoniy madaniyatini rivojlantirish darajasi, mezonlari, koʻrsatkich modeli**

| Rivolanish mezonlari | Rivojlanish koʻrsatkichlari | Metodik texnologiyalar |
|---|---|---|
| **1** | **2** | **3** |
| | **Motivatsion komponenti** | |
| Talabalarni sportga yoʻnaltirilganligi | Sport bilan shugʻullanish motivlarini nisbiy kuchi | Metodika “Sport bilan shugʻullanish motivlari” |
| Sport bilan shugʻullanishga qiziqish | Qiziqishning tuzilmali komponentlari | “Sport bilan shugʻullanishga qiziqish” anketasi |
| Sport toʻgaraklaridan qoniqish | Qoniqish | Pedagogik kuzatuv |
| | **Shaxs axloqiy yondashuv komponenti** | |
| sport faoliyatning subyekti sifatiga munosabat | Oʻziga ishonch | Anketa – soʻrovnoma |
| Musobaqalarga munosabat | Xotirjamlik | suhbat |
| Sportdagi natijalar | Maqsadga intilish,<br>qatʼiyat | taqqoslash |
| Sport hayot tarzi | oʻquv mashgʻulotlari davomati, sport toʻgaraklari vaqtida mustaqil jismoniy faollik, sport musobaqalarida qatnashish, zararli koʻnikmalardan voz kechish, uyqu, ovqatlanish, oʻqish, dam olish rejimni saqlash, tiklanish va chiniqtirish | Pedagogik kuzatuv<br><br>“Hayot-sport tarsi” anketa soʻrovi |
| | **Jismoniy komponent** | |
| Organizmning funksional imkoniyatlari | Yurak-tomir tizimini adaptatsion imkoniyatlari | adaptatsion potensial, |
| Harakatli qobiliyatlar | Tezlik qobiliyatlari<br>Tezlik-kuch qobiliyatlar<br>Koordinatsion qobiliyatlar<br>Egiluvchanlik<br>Chidamlilik | Jismoniy tarbiya mashgʻulotlari<br>100 m. ga yugurish<br>Joydan uzunlikga sakrash va h.k.<br>Oldinga engashish<br>3000 m. ga yugurish va h.k. |
| | **Axborotli komponent** | |
| Bilimlar | Metapredmetli yondashuv, jismoniy madaniyat bilimlari,<br>tanlangan sport turi bilimlari | Pedagogik testlar |
| | **Operatsion komponent** | |
| Tashkiliy-metodik mahoratlar | Jismoniy mashqlarni tashkil etish mahorati | Pedagogik testlar |
| Tanlangan sport turining texnika va taktikasiga egalik qilish | Tanlangan turi texnik-taktik usullarini bajarish mahorati | Ekspert bahosi |
| | **Refleksiv komponenti** | |
| oʻzini bilish | oʻzi toʻgʻrisida sport faoliyati subyekti sifatida bilimlar | oʻzini baholash tadqiqot metodikasi |
| oʻziga munosabat | Sport faoliyatini subyekti sifatida oʻzini emotsional qabul qilishi | “Test”(D.A. Leontev)<br>“oʻziga munosabat metodikasi” (S.R.Panteleev) |

| | | |
|---|---|---|
| Oʻz taqdirini belgilash | Tanlangan sport turi sohasida oʻzining oʻrni va rolini mustaqil aniqlash qobiliyati | |

**Natijalar.** Talabalarda sport toʻgaraklari orqali jismoniy madaniyatni har bir komponentini rivojlanish darajasi uning tarkibiy mezonlarini integratsiyalangan baholash orqali, jismoniy madaniyatni umumiy rivojlanish darajasi esa - uning jismoniy komponentlarini barcha tarkiblarini rivojlanishning integratsiyalangan bahosi orqali aniqlanadi.

Talabalarda sport tayyorgarligining barcha bosqichlarida jismoniy madaniyatini motivatsion, shaxsiy-axloqiy, jismoniy, axborotli operatsion, refleksiv komponentlar rivojlanishi oʻquv jarayonini barcha turlariga mujassam etish orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, talabalarda sport toʻgaraklari orqali jismoniy madaniyatni shakllanish muammosi dolzarb boʻlib tanlangan sport turi asosida talabalarni jismoniy tarbiyalashga tegishli maqsadli, mazmunli, tashkiliy-metodik va texnologik taminotini talab qiladi.

Talabalarning sportga boʻlgan munosabati, ularning ushbu faoliyat turiga qiziqishlarini oʻrganish talabalar oʻrtasida sport mashgʻulotlarini yanada aniqroq tashkil etishga, ularni tizimli jismoniy mashqlarga jalb qilish boʻyicha ishlarning malakali ravishda olib borilishiga va oʻz salomatligiga ongli munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarni sportning ayrim turlariga boʻlgan qiziqishlari va ehtiyojlariga tayanish, ularni turli sport turlari atrofida birlashib, sport musobaqalarida ishtirok etishga yordam beradi deb taxmin qilish mumkin. Bularning barchasi, pirovardida, ta’lim muassasalarida sport toʻgaragini tashkil qilish uchun qulay sharoit yaratishni taqazo etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni ta’kidlaydigan boʻlsak, sport toʻgaraklari sportchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga maxsus tarzda ta’sir koʻrsatadi, hayotiy koʻnikma va malakalarning shakllanishiga yordam beradi, ma’naviy-axloqiy va aqliy oʻsishga, shaxsning mardlik, iroda, ruhiy tetiklik kabi xususiyatlarini chiniqtirishga koʻmaklashadi, insonlarda oʻzaro hurmat, doʻstlik, inoqlik hissiyotlarini tarbiyalaydi, oʻzaro yordam, oliyjanoblik, halollik, baynalminallik ruhi va boshqalar sportning eng muhim fazilati hisoblanadi. Sport koʻngilxushlik va muxlislik bilan birgalikda sogʻlomlashtirish vazifasini bajaradi, uning sogʻlomlashtirish turlari, dam olish, joʻshqin hordiq chiqarishga qaratilgan boʻlib, sogʻlom hayotning asosi boʻlib hisoblanadi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Алексеев Н.Г. Проектирование и рефлексивное мышление // Развитие личности. – 2002, №2. – С. 85 - 103.
2. Xamroyev S.S. “Sport toʻgaraklari orqali oʻquvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish”. Pedagogika fanlari boʼyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Samarqand-2022 y. 163 b.
3. Хазиахметова М.С., Ханкельдиев Ш.Х. Особенности физического воспитания студенческой молодёжи. // Мат. межд. научн. метод. конф. Казань – 2003. С-236.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

## *№ 8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
**Боғланиш учун телефонлар:**
(99) 602-09-84 (telegram).